


# **Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida**



## **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni**

Mamlakatimizda xotin-qizlarni e'zozlash, ularning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, orzu-intilishlarini qo'llab-quvvatlash, o'zining iqtidori va ibratli faoliyati bilan yoshlarga o'rnak bo'lib kelayotgan, turli soha va tarmoqlarda qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarayotgan, Uchinchchi Renessans poydevorini yaratishda chuqur bilim va intellektual salohiyatini namoyon etib, o'z g'oya va tashabbuslarini ilgari surayotgan, ijtimoiy hayotda faollik ko'rsatayotgan qizlarni munosib rag'batlantirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtidorli qizlarini a'llo xulqi, noyob iste'dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta'lim, fan, adabiyot, san'at, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risidagi takliflari ilovadagi ro'yxatga muvofiq ma'qullansin.
2. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlarga 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkaziladigan bayram tantanalarida sovrindorlik diplomlari va ko'krak nishonlari topshirilsin.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining har biriga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida pul mukofoti berilishini ta'minlasin.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Zulfiya nomidagi Davlat

mukofoti sohibalarining ibratli faoliyati, ularning noyob iste'dodi va erishgan yutuqlarini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi**

**Prezidenti**

**Sh.Mirziyoyev**

**Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar**

**R O' Y X A T I**

**Karimboyeva Shahzoda Kamoladdin qizi** - Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanidagi 12-umumiy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

**Orazbayeva Gulsanem Jalg'asbay qizi** - Qoraqalpog'iston Respublikasi Bo'zatov tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

**Komilova Mehrinoz Oybekjon qizi** - Andijon davlat tibbiyot institutining 2-bosqich magistranti

**Radjiyeva Gulxayoxon Shuxratjon qizi** - Andijon davlat universitetining 3-bosqich talabasi

**Salimova Amira Sunnatjon qizi** - Buxoro viloyati Kogon shahridagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

**Umarqulova Dinora Sherali qizi** - Buxoro davlat universitetining 4-bosqich talabasi

**Imomova Dildora Shuxrat qizi** - Jizzax politexnika institutining 4-bosqich talabasi

**Mamarasulova Muqaddas Abdulqosim qizi** - Jizzax davlat pedagogika institutining 2-bosqich talabasi

**Ahmatova Sitorabonu Zohidjon qizi** - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialining 4-bosqich talabasi (Qashqadaryo viloyati)

**Berdiyeva Iroda Xudayshukurovna** - O'zbekiston Milliy universitetining 2-bosqich

magistranti (Qashqadaryo viloyati)

**Ibodullayeva Nafisa Muhitdinovna** - Navoiy davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti

**Shomurotova Nodirabegim Odilovna** - Navoiy viloyati Navoiy shahridagi ixtisoslashtirilgan madaniyat mакtabining 10-sinf o'quvchisi

**Abdullayeva Manzura Nasibillo qizi** - Namangan davlat universitetining 2-bosqich magistranti

**Xushnazarova Ayshaxon Adhamjon qizi** - O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining 3-bosqich talabasi (Namangan viloyati)

**Xayrullayeva Feruza Nurmat qizi** - «Respublika yosh ijodkorlar kengashi» nodavlat notijorat tashkiloti matbuot kotibi (Samarqand viloyati)

**Shomurodova Mohiniso Shavkat qizi** - Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2-bosqich talabasi (Samarqand viloyati)

**Sunnatova Madina G'ofurjon qizi** - Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining 2-bosqich talabasi (Sirdaryo viloyati)

**Hojiboboyeva Sarvinoz Habibjon qizi** - Guliston davlat universitetining 3-bosqich talabasi

**Komiljonova Nilufar Shuxrat qizi** - Termiz davlat universitetining 3-bosqich talabasi

**Omonova Umida Shuhrat qizi** - O'zbekiston shaxmat federatsiyasining Xalqaro shaxmat akademiyasi sportchi-o'quvchisi (Surxondaryo viloyati)

**Dehqonova Madinabonu Dilshod qizi** - O'zbekiston davlat konservatoriyaning 2-bosqich talabasi (Toshkent viloyati)

**Nazarova Zilola Ergashboy qizi** - Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar mакtabi to'garak rahbari

**Yo'idosheva Farzona Baxtiyor qizi** - Farg'ona viloyati Farg'ona shahridagi ixtisoslashtirilgan san'at mакtabining 10-sinf o'quvchisi

**Tursunova Dilnozaxon Isroiljon qizi** - Farg'ona politexnika institutining 4-bosqich talabasi

**Jumaboyeva Shaxzoda Ne'matjon qizi** - Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi 10-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lif matab-internatining 9-sinf o'quvchisi

**Karimova Madina Jumanazarovna** - Xorazm viloyati Urganch shahridagi 10-umumiy o'rta ta'lif matabining 11-sinf o'quvchisi

**Kim Yuliya Olegovna** - Respublika oliy sport mahorati maktabining figurali uchish bo'yicha murabbiyi (Toshkent shahri)

**Raximova Sayyora Yashin qizi** - Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 4-bosqich talabasi (Toshkent shahri)